

SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTLARIDA JAMOATCHILIK NAZORATIGA OID G'OYALARNING AKS ETISHI

Haydarov Obid Erkinovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: obidhaydarov@umail.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq siyosiy tafakkurining yirik vakillari – Lao Szi, Konfutsiy, Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulik, Ibn Xaldun, Amir Temur va Alisher Navoiy – asarlarida jamoatchilik nazoratiga oid g'oyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mazkur mutafakkirlar asarlarida hokimiyatning xalq oldidagi mas'uliyati, fuqarolar shikoyatlarini ko'rib chiqish, amaldorlar faoliyatini doimiy nazorat qilish, adolatli boshqaruv va davlat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro hisobdorlik kabi zamonaviy jamoatchilik nazorati institutiga xos g'oyalar o'z aksini topganligi ko'rsatiladi. Tadqiqot shuni tasdiqlaydiki, jamoatchilik nazoratining nazariy ildizlari G'arb an'anasiga emas, balki Sharq siyosiy falsafasiga ham chuqur borib taqaladi.

Kalit so'zlar: jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, Sharq siyosiy falsafasi, adolat, xalq, fuqaro, davlat rahbari, fozil jamiyat, hisobdorlik, odil podsho

REFLECTION OF IDEAS ON PUBLIC CONTROL IN THE TEACHINGS OF EASTERN THINKERS

Abstract. This article analyzes the role and significance of ideas related to public oversight in the works of major representatives of Eastern political thought – Lao Tzu, Confucius, Abu Nasr Farabi, Nizam al-Mulk, Ibn Khaldun, Amir Temur, and Alisher Navoi. It is demonstrated that these thinkers' works reflect ideas characteristic of modern public oversight institutions: accountability of power to the people, consideration of citizens' complaints, continuous monitoring of officials' activities, just governance, and mutual accountability between the state and society. The study confirms that the theoretical roots of public oversight extend deeply not only into Western tradition but also into Eastern political philosophy.

Keywords: public oversight, civil society, Eastern political philosophy, justice, people, citizen, head of state, virtuous society, accountability, just ruler

ОТРАЖЕНИЕ ИДЕЙ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В УЧЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение идей, связанных с общественным контролем, в произведениях крупнейших представителей восточной политической мысли — Лао-цзы, Конфуция, Абу Насра Фараби, Низамулмулька, Ибн Халдуна, Амира Темура и Алишера Навои. Показано, что в их трудах нашли отражение идеи, характерные для современного института общественного контроля: подотчётность власти народу, рассмотрение жалоб граждан, постоянный мониторинг деятельности чиновников, справедливое управление и взаимная подотчётность между государством и обществом. Исследование подтверждает, что теоретические корни общественного контроля уходят глубоко не только в западную, но и в восточную политическую философию.

Ключевые слова: общественный контроль, гражданское общество, восточная политическая философия, справедливость, народ, глава государства, добродетельное общество, подотчётность, справедливый правитель

Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik nazoratisiz fuqarolik jamiyatini tasavvur ham qilish qiyin. Fuqarolik jamiyati bu zamonaviy siyosiy tizimlarning asosiy xususiyati hisoblanadi. Biroq, insoniyat jamiyatining bosib o'tgan tarixiy evolyutsion yo'liga nazar tashlasak dunyoning turli mintaqalarida turlicha bo'lsada bugungi fuqarolik jamiyatning unsurlarini kuzatishimiz mumkin. Xususan, Sharq mutafakkirlarining ta'limotlarida ham davlat va jamiyat munosabatlari, davlatni idora etishda xalq manfaatlarini hisobga olish lozimligi, adolatli xalqparvar siyosat yuritilishi, hatto hokimlarni saylanishi kerakligi¹ haqidagi g'oyalarni uchratamiz.

Ma'lumki, bugungi kunda jamoatchilik nazoratini asosan davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik yuritadigan nazorat shaklida tushunish keng tarqalgan. Tarixda aynan jamoatchilik nazorati tushunchasi qo'llanilmagan bo'lsada ushbu tushunchada aks etgan mohiyat o'z davrining mutafakkirlari ijodida o'ziga xos shaklda aks etgan. Sharq ijtimoiy-siyosiy tafakkurida esa Lao Szi, Konfutsiy, Abu Nasr Forobiy, Nizomulmuluk, A.Navoiy kabi allomalarning asarlarida o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Xitoy falsafasiga ko'ra, davlat ishlarida adolat mezonini o'rnatilsa, xalq fikri inobatga olinsagina jamoatchilik nazoratining kurtaklari yuzaga kelishi mumkin. Mashhur faylasuf Lao Szi (mil.av. 579–499 yillar)ning ta'kidlashicha, adolatli davlat boshqaruvining barqaror, mustahkam asosi jamoatchilik fikrida namoyon bo'ladi hamda davlat ishlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish orqali hukmdor xalq ishonchini qozonishi mumkin. Uning nuqtai nazari bo'yicha, jamoatchilik nazorati – mamlakatni adolatli boshqarishning asosi hisoblanadi.

¹ Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.

Buyuk mutafakkir Konfutsiy (mil.av. 551–479 yillar) ta'limotiga ko'ra, jamoatchilik fikri ustun bo'lgan, jamoatchilik nazorati o'rnatilgan davlatni boshqarish hukmdorga qulaylik va yurt tinchligini saqlab turish imkoniyatini beradi. Uning mashur taqqoslashiga ko'ra podshoh misli bir chavandoz bo'lsa, amaldorlar va qonunlar yugan va jilov, fuqarolar esa otdir. Otni yengil boshqarmoq uchun uni puxta yuganlamoq va jilovni to'g'ri boshqarmoq lozimdir.

O'rta asr Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy (873–950) o'zining “Fozil odamlar shahri”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” va “Siyosat falsafasi” kabi asarlarida adolatli davlat boshqaruvi, fuqarolar hamjihatligi va jamiyat manfaatlarining ustuvorligi masalalarini chuqur yoritadi. Mutafakkir fikricha, inson yolg'iz o'zi komillikka erisha olmaydi, shu sababli u jamiyat va o'zaro yordamga muhtojdir. Forobiy fozil jamiyatda boshqaruvchi ham, boshqariluvchi ham umumiy manfaat yo'lida faoliyat yuritishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv hokimiyatni axloqiy mezonlar asosida baholash, jamiyat manfaatini ustun qo'yish va fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish g'oyalarini o'zida mujassam etadi.²

Saljuqiylar davlatining taniqli vaziri va mutafakkir Nizomulmulk (1017–1092)ning mashhur “Siyosatnoma” (Siyar ul-muluk) asari davlat boshqaruvi, siyosat va jamiyat tuzilishi haqidagi qimmatli manbadir. Ushbu asarda jamoatchilik nazoratining dastlabki elementlari yaqqol namoyon bo'ladi. Nizomulmulk podshohlarni xalq ahvolidan doimiy xabardor bo'lishga chaqiradi va ularning mas'uliyatini oxirat hayoti bilan bog'lab, hokimiyatning fuqarolar hayotiga befarq bo'lishi mumkin emasligini uqtiradi. Uning fikricha, podshoh qo'lidan kelganicha yashirinch va oshkora ravishda xalq ahvolini o'rganishi, zolimlar zulmidan aholini himoya qilishi shart³. Bu esa jamoatchilik nazoratining asosiy g'oyasi – davlat organlari faoliyatining shaffofligi va fuqarolar ehtiyojlarini hisobga olish zaruriyatini ifodalaydi. Nizomulmulk fuqarolarning arz-u dodlariga quloq solishni davlat boshqaruvining muhim sharti deb biladi. U podshohlar fuqarolarni vaqti-vaqti bilan o'zlari qabul qilishlari kerakligini ta'kidlaydi, bu esa zamonaviy jamoatchilik nazoratining murojaatlar bilan ishlash va bevosita muloqot shakliga to'g'ri keladi. Shuningdek, u mulk sohiblari (iqtadorlar) faoliyatini muntazam tekshirib turish zarurligini uqtiradi: ular raiyatdan haqni faqat yaxshilik bilan olishlari, odamlar o'z tan-u mollari, bola-chaqalari bilan xavfsiz bo'lishlari lozim. Agar xalq saroyga kelib shikoyat qilmoqchi bo'lsa, ularga to'siq qo'yilmasligi kerak. Odil podshohlar har ikki-uch yilda mulk egalarining ishlarini taftish qilib, ularning raiyat haqiga ko'z olaytirmasligini nazorat qilishlari zarur, deb yozadi u. Bu fikrlar amaldorlar faoliyati ustidan muntazam jamoatchilik monitoringi va ekspertizasi o'tkazish, ularning qonunbuzarliklari uchun javobgarlikka tortilishi zarurati g'oyalarini o'zida mujassam

² Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.

³ Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). – Toshkent, 2017.

etgan. Nizomulmulkning fikricha hukmdor adolatli bo'lsa, xalq ham to'g'ri yo'lda bo'ladi. "Zulm qilgan kishi"ga nisbatan darhol jazo choralari qo'llash, hatto iqta'⁴ni tortib olish orqali boshqalarga ibrat bo'lish lozim. Ushbu qarashlar zamonaviy jamoatchilik nazoratining korrupsiyaga qarshi kurash, davlat organlari va mansabdor shaxslarning hisobdorligi tamoyillari bilan bevosita uyg'unlik kasb etadi. Shunday qilib, Nizomulmulk "Siyosatnoma"da hokimiyatning xalq oldida javobgarligi, fuqarolarning shikoyat qilish va murojaat etish huquqi, amaldorlar faoliyatini doimiy tekshirish, ularning qonunbuzarliklari uchun javobgarlikka tortilishi, adolat va korrupsiyaga qarshi kurash kabi jamoatchilik nazoratining asosiy elementlarini o'z davridayoq ilgari surgan. Uning g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va jamoatchilik nazorati institutining nazariy asoslarini boyitishda muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Arab tarixchisi va faylasufi Ibn Xaldun (1332–1406) o'zining "Muqaddima" asarida jamoatchilik nazorati g'oyasiga yaqin bo'lgan muhim tushunchalarni ishlab chiqdi.⁵

Ibn Xaldun hukumat haqida quyidagi mashhur ta'rifni bergan: u adolatsizlikning oldini oluvchi, biroq o'zi ham adolatsizlik qilishi mumkin bo'lgan institutdir. Ibn Xaldunning asabiyya – ijtimoiy birdamlik – nazariyasi fuqarolar o'rtasidagi hamjihatlik va ularning hokimiyat ustidan birgalikda nazoratini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida talqin etilishi mumkin. Uning fikricha, jamiyat a'zolarining birligi va kuchli fuqarolik tuyg'usi davlatni hisobdorlikka majburlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Ibn Xaldun davlat haddan tashqari kuchayib, jamiyatdan ko'proq ola boshlasa, oxir-oqibat o'zi yashovchi jamiyatni iste'mol qilish xavfini tug'dirishini anglagan, davlat kuchli ko'rinishda bo'lib, aslida ichdan zaiflarib boradi. Bu g'oya zamonaviy jamoatchilik nazoratining asosiy maqsadi – davlat faoliyatining chegaralanishi va fuqarolar oldida hisobdorligini ta'minlash – bilan to'liq uyg'unidir.

Sohibqiron Amir Temur (1336–1405) o'zining "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvida jamoatchilik nazoratiga oid g'oyalarni ishlab chiqqan. Sohibqiron har bir viloyatda amaldorlar va xalq ahvolini kuzatib boruvchi maxsus voqeanavislar tayinlash, fuqarolar shikoyatlarini bevosita ko'rib chiqish, adolatli vazirlar orqali hokimiyat ustidan nazorat ta'minlash va har shaharda "adolat amiri" hamda "muhtasib" kabi maxsus nazorat mansabdorlarini faoliyat yuritishini zarur deb hisoblagan. Temurning "hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko'rdim"⁶, degan

⁴ Iqta' – davlat (sulton yoki amir) tomonidan harbiy xizmat yoki boshqa xizmatlar evaziga sarkardalarga ma'lum bir hududdan soliq undirish huquqining vaqtincha berilishi

⁵ Ibn Khaldun. The Muqaddimah: An Introduction to History / Translated by F. Rosenthal. — Princeton: Princeton University Press, 1967.

⁶ Temur A. Temur tuzuklari / A.Sog'uniy, H.Karomatov tarj. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 90-bet.

tamoyili davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining mohiyatini o'zida to'liq aks ettiradi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441–1501) o'zining “Hayrat ul-abror”, “Saddi Iskandariy” dostonlari va “Mahbub ul-qulub” asarida hokimiyatning adolatli boshqaruvi va hukmdorning xalq oldida mas'uliyati haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Navoiyning ta'kidlashicha odil podsho “xalq manfaatlarini ko'zda tutuvchi, badnafs va fosiq kishilarning yo'lini to'suvchi”dir⁷. Mutafakkir hukmdorning aybi va kamchiliklarini tanqid qilishni nafaqat mumkin, balki zarur deb hisoblagan.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik nazorati g'oyasining nazariy ildizlari Sharq siyosiy tafakkurida ham chuqur o'rin tutadi. Lao Szi va Konfutsiy asarlarida xalq irodasini hisobga olish va hukmdor faoliyatini jamiyat tomonidan baholash g'oyalari, Forobiyda hokim hisobdorligi va fuqarolik mas'uliyati, Nizomulmulkda amaldorlar faoliyatini muntazam tekshirish va fuqarolar shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi, Ibn Xaldunda ijtimoiy birdamlik va davlat hisobdorligi, Amir Temurda maxsus nazorat organlari va voqeanavislik tizimi, Navoiyda esa jamoatchilik fikri orqali amalga oshiriladigan axloqiy nazorat — bularning barchasi zamonaviy jamoatchilik nazorati institutining asosiy tamoyillarini o'zida mujassam etadi.

Shunday qilib, jamoatchilik nazorati faqat zamonaviy G'arb demokratiyasining kashfiyoti emas, balki insoniyat sivilizatsiyasining turli mintaqalarida, xususan, Sharq siyosiy falsafasida asrlar davomida shakllangan universal g'oyadir. Ushbu xulosaning O'zbekiston uchun alohida ahamiyati shundaki, mahalliy siyosiy an'ana va Sharq mutafakkirlarining merosiga tayanib, zamonaviy jamoatchilik nazorati tizimini rivojlantirish uchun boy nazariy asos mavjuddir.

1. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
2. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). – Toshkent, 2017.
3. Temur A. Temur tuzuklari / A.Sog'unuy, H.Karomatov tarj. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 90-bet.
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
5. Ibn Khaldun. The Muqaddimah: An Introduction to History / Translated by F. Rosenthal. – Princeton: Princeton University Press, 1967.

⁷ Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.